

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
<b>A.B.Kosimova</b>	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar .....	469
	TILSHUNOSLIK
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni .....	473
<b>R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva</b>	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari .....	477
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida .....	483
<b>F.X.Qosimova</b>	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
<b>A.A.Ergashev</b>	
Etnotoponimlar tadqiqi .....	496
<b>H.Sh.Radjabova</b>	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
<b>S.A.Jabborova</b>	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
<b>Sh.R.Amonturdiyeva</b>	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari .....	511
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
<b>X.F.Xaydarova</b>	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
<b>I.A.Egamberdiyeva</b>	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi .....	527
<b>D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva</b>	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
<b>Z.Sh.Ashurova</b>	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini .....	535
<b>I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova</b>	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar .....	539
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
<b>V.A.Vositov</b>	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida .....	550
<b>M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi .....	557
<b>D.I.Khodjaeva</b>	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
<b>O.M.Yusupova</b>	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili .....	567
<b>M.V.Nasridinov</b>	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages .....	577
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics .....	582
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili .....	586
<b>M.Y.Madiyeva</b>	



UO'K: 81'373.6

**TILLARDAGI TURG'UN O'XSHATISHLARNING UMUMLINGVISTIK STATUSI****THE GENERAL LINGUISTIC STATUS OF STABLE SIMILES IN LANGUAGES****ОБЩЕЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ СТАТУС УСТОЙЧИВЫХ СРАВНЕНИЙ В ЯЗЫКАХ**

**Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna**   
Farg'ona davlat universiteti, PhD, dotsent

**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy yondashuvlar va antroposentrik paradigmaga e'tibor qaratilib, tilshunoslik sohasidagi barqaror o'xshatishlarning ahamiyati muhokama qilinadi. Unda lingvistik xususiyatlarni, semantik kombinatorikani va nutqdagi o'xshatishlarni ifodalashni o'rganish muhimligini ta'kidlanadi. Matnda turg'un o'xshatishlar yaratishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, sintaktik munosabatlarni o'rganish va metafora, o'xshatish va qiyoslash kabi til hodisalarini har tomonlama tahlil qilish zarurati haqida so'z boradi. Barqaror o'xshatishlarni chuqurroq tushunish uchun kognitiv semantikani an'anaviy yondashuvlar bilan birlashtirish taklif etiladi.

**Аннотация**

В статье обсуждается важность устойчивых аналогий в лингвистике с акцентом на современные подходы и антропоцентрическую парадигму. В нем подчеркивается важность изучения языковых особенностей, семантической комбинаторики и выражения аналогий в речи. В тексте подчеркивается необходимость изучения лингвистических и экстралингвистических факторов, влияющих на создание устойчивых аналогий. Далее говорится о необходимости изучения синтаксических отношений и всестороннего анализа таких языковых явлений, как метафоры, сравнения и аналогии. Для более глубокого понимания устойчивых аналогий предлагается объединить когнитивную семантику с традиционными подходами.

**Abstract**

The article focuses on contemporary approaches and the anthropocentric paradigm and discusses the importance of sustainable analogies in linguistics. It emphasizes the importance of learning to express linguistic features, semantic combinatorics, and metaphors in speech. The text emphasizes the need to study the linguistic and extralinguistic factors that influence the creation of stagnant analogies. In addition, there is talk about the need to study syntactic relations and comprehensively analyze linguistic phenomena such as metaphor, analogy and analogy. For a deeper understanding of stable metaphors, it is proposed to combine cognitive semantics with traditional approaches.

**Kalit so'zlar:** yondashuv, o'xshatish, kognitiv semantika, turg'un o'xshatish

**Ключевые слова:** подход, сравнение, когнитивная семантика, устойчивое сравнение

**Key words:** approach, simile, cognitive semantics, stable simile

**KIRISH**

Jahon tilshunosligida yetakchi ilg'or ilmiy tadqiqot ishlarining antroposentrik paradigma doirasidagi zamonaviy, yangi yondashuvlar asosida olib borilishi natijasida hozirgacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilmagan turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi masalasi, o'xshatish maydoni elementlarining funksional-pragmatik gradatsiyasi, til me'yorlariga munosabati masalasi, diskursda voqelanishining turg'un o'xshatishlar va o'xshatishni turli kontekstlarda ifodalovchi stilistik vositalar bilan munosabati masalasini tadqiq qilishga e'tibor yillar o'tgan sari kuchayib bormoqda. Bu holatda tilshunoslikdagi an'anaviy terminologiyaning prinsip va metodlari orqali turg'un o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari, semantik-kombinatorikasi va qamrov kengligi, imkoniyat va cheklanganlik darajasi, kognitiv semantika metodlari orqali turg'un o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlarini ochish, yangi metodologik tamoyil va tadqiq usullari orqali turg'un o'xshatishlarni yasashda ishtirok etuvchi til birliklarini shakllantirgan lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida idiomatiklik, idioma, turg'un birliklar, erkin birikmalar, til birliklari kombinatorikasi, modifikatsiya, atributsiya, predikatsiya kabi sintaksik munosabatlarini o'rganish an'anaviy, tilshunoslik maktablari davridan beri o'rganib kelingan bo'lsa, turg'un o'xshatishlar

hodisasi alohida monografik izlanish uchun obyekt bo'lib xizmat qilgan. Bir qarashda metafora, o'xshatish (simile), qiyoslash kabi turli xarakterdagi til hodisalarga tilshunoslikda ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da ularni umumlashtiruvchi, o'xshash va farqli tomonlarini yoritib bergan, keng qamrovli tadqiqot haligacha yaratilmagan. Shu sababli XXI asr boshlarida keng qamrovli ishlar olib borishga poydevor bo'lib xizmat qilgan kognitiv semantika doirasida yuqoridagi til hodisalarining murakkab va izohtalab jihatlari, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari, tillararo o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kunda turg'un o'xshatishlar funksional qo'llash ko'lamining kengayib borishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar doirasida kelib chiqadigan lisoniy muammolarni yechishga asos bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, turg'un o'xshatishlarning shakllanishida kognitiv semantikaning an'anaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga xarakat qilinmoqda.

Fan, texnika, madaniyatning gurrurab o'sishi tilshunoslikning orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, monografiya va uslublarini ham shakllantirildi. O'zbek adabiy tilining funksional uslublari milliy tilda badiiy, ilmiy (siyosiy, texnikaviy va hokazo) adabiyotlarning ko'plab chop etilishi, matbuot, radio, televideniya nutqlarining shakllanishi orqali yuzaga keldi va takomillashdi. Endilikda nutq madaniyati tilshunoslikning fonetika, grammatika sohalarini o'rganish va takomillashtirish bilan birga stilistikaning uch tarkibiy qismi bo'lgan lingvistika, badiiy adabiy tili, nutq stilistikasi turlarini tadqiq qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu ulkan vazifalar nutq madaniyatining kundalik, kechiktirib bo'lmas muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Nutq madaniyatining nazariy hamda amaliy muammolari milliy til va milliy madaniyat taraqqiyotining darajasini, saviyasini ko'rsatuvchi asosiy mezondir.

Badiiy adabiyot tili stilistikasining asosiy masalalaridan biri bo'lib, unda lingvistik va nutqiy stilistikaning barcha ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Bu ulkan va murakkab muammoning nazariy hamda amaliy masalalaridan biri badiiy asar tilidagi tasviriy vositalardir. Ularning lingvistik xususiyatlarini o'rganishi orqali milliy tilning leksik, grammatik qatlamlarini hamda emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham V.V.Vinogradov: "Xalq tilidagi tasviriy vositalarni o'rganish juda ham muhimdir. Badiiy ijodda so'z san'atining qonunlari, yozuvchi ijodi, individual nutq xarakterining yo'nalishi, obrazlarning yaratilishi va ekspressiv rang-baranglik badiiy asarlarda til taraqqiyotining qonunlari bilan yoritiladi", - deb yozgan edi.

O'xshatish tasviriy vositasining badiiy vositalaridan biri bo'lib, obrazlilik, ta'sirchanligi va aniqligi bilan badiiy asar tilidan ajralib turadi. Badiiy adabiyot tilida o'xshatishlar obrazlar, xarakterlar, tabiat manzaralari tasvirida, xullas, badiiy komponentlarning barchasida qo'llaniladi. Bu bilan asarning badiiy qimmat, ta'sirchanligi va obrazlilik ortadi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy adabiyot tili individual san'atkor tilidir. Undagi obrazlar, kartinalar, xarakterlar yozuvchi tafakkurining mahsuli bo'lib, "so'z bilan obraz bir butun idrok qilingani holda" asar g'oyasini ochishga yo'naltiriladi. Shuningdek, badiiy komponentlar tarkibida kelgan o'xshatishlar ham shu maqsadni yoritishga qaratiladi. Lekin bu o'xshatishlarni biror badiiy asar tilidan ajratib o'rganish mumkin emas, degan noto'g'ri tushunchaga olib kelmasligi kerak. Yozuvchi badiiy asarni milliy til asosida yaratar ekan, undagi o'xshatishlarni xalq tilidan oladi, ayrimlarini qayta ishlab, unga stilistik-semantik ma'no yuklaydi. Badiiy adabiyot tilidagi o'xshatishlar shu jihatdan ikki katta – an'anaviy va individual o'xshatishlarga bo'linadi.

An'anaviy o'xshatish xalqning jonli – so'zlashuv nutqidagi o'xshatish bo'lib, yozuvchi tomonidan o'zgartirilmagan holda badiiy asar tiliga kiritiladi. Unda ta'sirchanlik, aniqlilik xususiyatlari yaqqol gavdalanmaydi. Masalan, o'qday yoki yelday yugur, chayonday zahar, xo'rozdek urushqoq, mushukday yoki qo'yday yuvosh, to'ngakday yoki ayiqday qo'pol kabi o'xshatishlarni ko'rsatish mumkin. Chunki bu narsalarning zahar, yuvosh, qo'pol kabi belgilari odamlarga avvaldan ma'lum bo'lib, jonli so'zlashuv nutqida qo'llaniladi. Bunday o'xshatishlar kundalik nutqda ishlatilishi orqali o'zining obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yo'qotgan. Shuning uchun ham bunday o'xshatishlar badiiy asar tilida, ko'pincha, personaj va dialog nutqlari orqali beriladi hamda bu bilan badiiy adabiyotda so'zlashuv nutq uslubining belgisini aniqlashga erishiladi. A.F.Yefremov badiiy adabiyot tilidagi o'xshatishlarni o'rganishga oid

## TILSHUNOSLIK

maqolasida shu narsaga e'tibor berib, rus tilining joli so'zlashuv nutq uslubida qo'llanadigan "работаль как звер" kabi o'xshatishlarni "стереотипные сравнение" termini bilan nomlagan.

Individual o'xshatish yozuvchining xalq tilidan mohirona foydalanish orqali qo'llagan o'xshatishidir. Unda emotsional-ekspressivlik, obrazlilik yaqqol gavdalanadi. Badiiy asar tilida bunday o'xshatish ko'pincha muallif nutqi orqali beriladi va o'zining originalligi, aniqligi hamda kitobxon hayolida yo'qligi bilan ajralib turadi. Masalan, Abdulla Qahhor "Sarob" romanida o'z nutqi orqali mana shunday o'xshatishlarni qo'llaydi: *Yo'g'on kishi chalqancha yiqildi va so'yilgan tovuqday pitirlab, suyak tiqilgan itday xirillay boshladi; Domla xuddi dasht safaridan qaytganday qoraygan, ozgan, ko'zlari kirtaygan, ilgari govmush sigirning yeliniday osilib turadigan baqbasini so'lgan, dami chiqqan pufakday shalviragan, soch-soqoli o'sgan, sochidagi oq ko'payganday ko'rinar edi* kabilar. Bu individual o'xshatish personajlarning holatini tasvirlashda o'zining aniqliligi bilan ajralib turadi. Individual o'xshatishda obrazlilik bilan emotsionalilik o'zaro bog'langan va aniq obrazda emotsiya kuchlidir. O'xshatishlar bir tomondan, obrazni gavalantirsa, ikkinchi tomondan, emotsional tuyg'ularga ta'sir qiladi.

Individual o'xshatish yozuvchi tomonidan hayotiy haqiqatlarni sinchiklab tekshirish natijasida ro'yobga chiqadi hamda tasvirlanayotgan obyektning xira, qorong'u, mavg'um tomonlari kitobxon ko'z oldida reallashadi, oydinlashadi. Masalan, A.Qahhor "Sinchalak" qissasida Eshonni gavalantirishda uning yuzini *so'rib tashlangan husayni uzumga*, A.Muxtor "Opa-singillar" romanida din peshvosini ta'riflab, uning yuzini *g'ijimlangan qog'ozga* o'xshatadi. Bunday o'xshatish so'zlashuv nutqi uslubda qo'llanmasligi hamda o'zining obrazlilik, aniqliligi bilan badiiy asar tilidan ajralib turadi.

Badiiy adabiyot tilida qo'llangan o'xshatishlar ijobiy va salbiy ma'nolari bilan farqlanadi. Ijobiy ma'noli o'xshatishlar badiiy asardagi ijobiy qahramonlar portreti, xarakterida beriladi. Masalan, ularning muhim belgi, xususiyati oy, quyosh, mevali daraxtlar va boshqa narsa, hodisalarning ijobiy belgi va xususiyatiga qiyoslanadi.

Salbiy qahramonlar esa hayotdagi zararli, yomon narsalarga o'xshatiladi. Masalan, ular ko'pincha chayon, kaltakesak, kalamush kabilarga qiyoslanadi. Yozuvchi bu bilan salbiy qahramonlarga bo'lgan o'zining emotsiyasini, antipatiyasini bildiradi hamda kitobxonning shu qahramonga nisbatan nafratini qo'zg'otadi.

O'xshatishlarning ijobiy, salbiy ma'no anglatishida ularning qiyoslanish obyektlari muhim rol o'ynaydi. Masalan, zuluk so'zini olib ko'raylik. Agar zulukning tashqi belgi, xususiyati qiyoslangan, ijobiy o'xshatish yuzaga keladi: *Zulukday ot, zulukday qiz, zulukday mashina* kabi. Lekin zulukning qon so'rishlik belgi, xususiyati qiyoslanganda salbiy ma'no anglatiladi. Demak, o'xshatishlar badiiy asar tilida saralanib qo'llanadi. Ijobiy qahramonlarga qilingan o'xshatishlar salbiy qahramonlarga, salbiy personajlarga qo'llangan o'xshatishlar ijobiy qahramonlarga nisbatan ishlatilmaydi.

## XULOSA

O'xshatish tasvirda tabiiy va haqiqiy vositalardan biri bo'lib, u juda aniq va oqilona bo'lishi lozim. Aks holda o'xshatish aksincha natija berishi mumkin. Maqolada o'xshatishning ikki turi muhokama qilinadi: an'anaviy o'xshatishlar va individual o'xshatishlar. An'anaviy o'xshatishlar - kundalik nutqda tez-tez qo'llaniladigan, tez-tez qo'llanilishi tufayli o'zining majoziy va hissiy xususiyatlarini yo'qotadi. Masalan, "o'q kabi chopish" yoki "chayon kabi zaharli". Ushbu o'xshatishlar adabiy asarlarga kiritilganda, ko'pincha so'zlashuv nutqini aks ettiradi va personajlar yoki dialoglarga bog'liq.

Boshqa tomondan, individual o'xshatishlar yozuvchilar tomonidan tildan mohirona foydalangan holda yaratilgan, hissiy ekspressivlik va jonli tasvirni o'zida mujassam etgan. Bu o'xshatishlar o'ziga xos, to'g'ri bo'lib, o'quvchida kuchli ruhiy obrazlarni uyg'otadi.

Bu ikki turdagi o'xshatishlar o'rtasidagi tafovut va ular adabiy asarlarning boyligi va uslubiga qanday hissa qo'shishini tan olish muhimligi ta'kidlab o'tish zarur.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Qahhor- Sarob: Roman. -T.: «Sharq» NMK Bosh tahririyati,. 1995. 240 b.
2. A.Qahhor- Sinchalak: qissa. -T.: «Ilm-Ziyo-Zakovat»,. 2021. 192 b.
3. В.В.Виноградов- О теории художественной речи. -М.,. 2005. 236 с.